Agressiv siyosatini tanlagan xo‘jalik subyekti o‘tgan faoliyatiga yuqori baho beradi, ya‘ni bunda qo‘llanilgan hisob siyosati avvalgi yillardagi faoliyatni yuqori baholashga qaratiladi. Lekin so‘nggi yillarda xo‘jalik subyekti ish faoliyatini pasayishiga olib keladigan holatlar bo‘lishi mumkin. Demak bu hisob siyosatini tanlashda ehtiyotkorlik talab etiladi, sababi, agressiv hisob siyosati auditorlar yoki investorlarni kelgusida biroz xavotirga solib qo‘yish extimolini vujudga keltiradi (menejerlar tomonidan faoliyati pasaygan subyekt haqida noto‘g‘ri ma‘lumotlarni taqdim etishi xatari oshib boradi).

METODOLOGIYA

Maqolani yozish davomida hisob siyosatini shakllantirishga oid adabiyotlar sharhi to‘liq tahlil etilgan holda, ulardagi jahon va maxalliy iqtisodchi olimlarning korxonalarda hisob siyosati, uning ahamiyati va zaruriyati, uni Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari talablariga muvofiqlashtirishga bergan fikr va qarashlari atroflicha o‘rganildi, shuningdek, ushbu fikrlarga asoslangan yo‘nalishlar, jumladan xo‘jalik yurituvchi subyektlarda hisob siyosatini shakllantirishdagi asosiy tamoyillar va qoidalar belgilandi hamda tadqiqot yo‘nalishi sifatida tadqiqot paradigmasi miqdoriy, obyektiv va ilmiy usullardan foydalanildi.

Xo‘jalik subyektlarida hisob siyosatini shakllantirish va uni Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari talablari asosida takomillashtirish bo‘yicha olib borilgan tadqiqot jarayon asosan deduktiv usulda amalga oshirildi. Unda sabab va natija ko‘rinishidagi statistik dizayn ishlatildi. Hisob siyosatini shakllantirish masalasi yuzasidan olib borilgan tadqiqot vaziyatga bog‘liq emas, chunki hisob siyosati xo‘jalik yurituvchi subyektlarning yangi moliya yili uchun shakllantiriladi va hisobot yili davomida unga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritib boriladi, albatta xalqaro me‘yorlar talablari hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Markaziy bank tomonidan kiritilgan uslubiy o‘zgarishlar asosida.

Hisob siyosatini shakllantirish va uni MHXS lari talablariga uyg‘unlashtirish bo‘yicha olib borilgan natijalarni umumlashtirish kelgusi moliyaviy hisobotni ishonchligini oshirishga va xo‘jalik yurituvchi subyektlar uchun investitsiyalar harakatini oshirishni bashorat qilishga, tushuntirishga olib keldi. Shuningdek, xo‘jalik yurituvchi subyektlarda hisob siyosatini oqilona tashkil etish va uni MHXS asosida shakllantirishda tanlab olingan obyektlardagi mavjud natijalarni ishonchligi tekshiruv va kuzatuvlar asosida tasdiqlandi.

Shuningdek, maqolada MHXS qo‘mitasi va uning vazifalari, standartlarni ishlab chiqish bosqichlari, standartlarni qo‘llash doirasi hamda xorijiy davlat olimlari va mahalliy olimlarning ilmiy ishlaridan andoza olinib, respublikamizda faoiyat yuritayotgan xo‘jalik subyektlarida hisob siyosatini shakllantirish va uning uslubiyotini takomillashtirish hamda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari talablariga moslashtirishda qiyosiy tahlil usullaridan ham foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Globalashuv jarayoni dunyodagi buxgalteriya hisobi tizimini yagona bir tizimga aylanishiga sabab bo‘lmoqda. Bunda Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari muhim rol o‘ynaydi. Shu jihatdan moliya sohasining rivojiga xizmat qiluvchi, jahon iqtisodiyoti rivojlanishining hozirgi shart-sharoitlariga mos me‘yoriy-huquqiy negiz ishlab chiqish masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday ma‘suliyatli vazifani dunyo hamjamiyatida Buxgalteriya hisobi xalqaro standartlari kengashi (BHXSK-IASB-International accounting standards board) o‘z zimmasiga olgan bo‘lib, Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini (MHXS) belgilangan tamoyillar (Moliyaviy hisobotning konseptual asosi) asosida ishlab chiqadi.



Tamoyillarga asoslangan hisob tizimida hisob standartlari belgilangan tamoyillar asosida ishlab chiqiladi. Qoidalarga asoslangan hisob tizimida xar bir yuzaga keladigan hisob operatsiyasi uchun alohida yondashuv ishlab chiqiladi. Ikkisida ham kamchilik va afzallik tomonlari mavjud.

1-jadval: Tamoyillarga asoslangan standartlar¹

Konseptual asos standartlarni ishlab chiqish uchun asos bo'lgan eng muhim tamoyillarni belgilaydi. Bu tizim hisob standartlari bir-birini inkor etmasligi va standartlardan har qanday og'ish konseptual asosda belgilangan tamoyillarga muvofiqligini baholash imkonini beradi. Mana shu tizim tamoyillarga asoslangan hisob tizimi hisoblanadi.

Qoidalarga asoslangan hisob tizimi har bir holatni alohida yondashuv bilan qamrab olishga asoslangan bo'lib, natijada juda ko'p miqdordagi me'yoriy huquqiy hujjatlar paydo bo'lishiga olib keladi. Masalan, bunday tizim AQSh davlatida amal qiladi. O'tgan davr shuni ko'rsatdiki, keng qamrovli me'yoriy hujjatlar ham har doim moliyaviy qoidabuzarliklar oldini olish imkoniyatini bermaydi. Ushbu tizimning asosiy ustunligi shundaki, mulohaza qilish masalasini kamaytiradi.

Shu o'rinda biz hisob siyosatidan avval MHXSni afzaliklariga to'xtalib o'tmoqchimiz. Bizning fikrimizcha MHXSni qabul qilishning afzallik va kamchilik tomonlarini xar bir davlat uchun alohida qarash lozim. Hozirda bunday taqqoslash ayniqsa AQShda keng muhokamalarga sabab bo'lmoqda. MHXSning asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

- birinchi, tashkilotlar o'zining moliyaviy hisobotlarini chet eldagi raqobatchisi bilan bir xil asoslarda taqdim etish imkonini beradi. Bu esa o'z navbatida ushbu hisobotlarni qiyoslash imkonini beradi.
- ikkinchi, kompaniya aksiyalari likvid bo'ladi va chet eldan kapital jalb etish imkonini beradi. Chunki chet el investori sizning moliyaviy hisobotingizni tushuna oladi.
- uchinchi, xorijda sho'ba tashkilotlariga ega bo'lgan kompaniyalar umumiy kompaniya miqyosidagi yagona hisob tiliga ega bo'ladi. Natijada, yakuniy jamlangan hisobotni tuzish asrga teng vaqtni olmaydi.
- to'rtinchi, qo'shib olinadigan xorij kompaniyalarni baholashda qulay imkoniyatga ega bo'linadi.

MHXSlar ishlab chiqish aniq belgilangan jarayon va dunyoning turli tomonlaridan buxgalterlar, auditorlar va maslahatchilarning xalqaro muhokamasidan o'tib qabul qilinadigan rasmiy tizimdan iborat bo'ladi.

MHXS bo'yicha Kengash har besh yilda bir marta xalqaro standartlashtirish ustuvorliklarini aniqlash va loyihaning ish rejasini ishlab chiqish uchun keng qamrovli qayta ko'rib chiqish va maslahatlashuvlarni o'tkazadi. Shuningdek, Kengash kun tartibidagi maslahatlashuvlar orasida zarur bo'lganda ish rejasiga mavzular qo'shishi mumkin. Bunga standartlarni sharhlashdan keyingi mavzular kiradi; MHXS Sharhlash qo'mitasi kengashga masalani qayta ko'rib chiqishni talab qilishi mumkin.

Kengash ko'p loyihalarni tadqiqot bilan boshlaydi - muammolarni o'rganib chiqadi, yechimlarni aniqlaydi va standartlarni o'rnatish kerakmi yoki yo'qligini hal qiladi. Ko'pincha kengash o'z fikrlarini muhokamada bayon qiladi va jamoatchilik fikrini o'rganadi.

Agar kengash buxgalteriya hisobi bilan bog'liq muammolar mavjudligi haqida yetarli dalillarni topsa, muammo standartni o'zgartirish yoki yangisini chiqarish uchun yetarli darajada muhim va amaliy yechim topilsa, Kengash standartlashni boshlaydi.

Agar Kengash standartga o'zgartirish kiritish yoki yangisini chiqarish to'g'risida qaror qabul qilsa, Kengash odatda tadqiqotni, shu jumladan Muxokama qog'ozidagi sharhlarni ko'rib chiqadi va tadqiqotlar hamda maslahatlashuvlar orqali aniqlangan muammolarni hal qilish uchun tuzatishlarni yoki standartlarni taklif qiladi.

Yangi standart yoki standartga o'zgartirish kiritish bo'yicha takliflar jamoatchilik muhokamasi uchun taqdim etilgan loyihada e'lon qilinadi. Qo'shimcha dalillarni to'plash uchun, Kengash a'zolari va MHXS fondi texnik xodimlari dunyoning turli mintaqalaridagi turli moliyaviy axborot foydalanuvchilari bilan maslahatlashadilar. Kengash fikr-mulohazalarni tahlil qiladi va yangi standart yoki standartga o'zgartirish kiritilishidan oldin takliflarni aniqlaydi. Standart chiqarilganidan keyin xam Kengash ishi to'xtamaydi. Kengash, shuningdek, Standartlarning bajarilishini qo'llab-quvvatlaydi.

Ushbu jarayon hal qilinishi kerak bo'lgan har qanday muammolarni aniqlash uchun yangi yoki o'zgartirilgan standartni amalga oshirish bo'yicha maslahatlarni o'z ichiga oladi. Agar muammolar paydo bo'lsa, MHXS Sharhlash qo'mitasi Standartning sharhini tuzishga qaror qilishi yoki tor doiradagi tuzatishni tavsiya qilishi mumkin. Bunday o'zgartirishlar MHXS Kengashining odatdagi tartibidan kelib chiqadi.

Yangi standart bir necha yillar amaliyotda qo'llangandan so'ng, Kengash ushbu standart o'z maqsadiga erishganligini baholash uchun amalga oshirilgandan keyingi sharh orqali tadqiqotlar o'tkazadi. Agar standart o'z maqsadiga erishmagan deb topilsa qandaydir tuzatishlarni ko'rib chiqish lozimligi bo'yicha tadqiqotlar o'tkaziladi.

1 Muallif ishlanmasi



MHXSlar barcha tijorat tashkilotlari moliyaviy hisobotlarini tuzishda qo'llash uchun mo'ljallangan. Shu bilan birga ushbu standartlar notijorat tashkilotlar tomonidan ham qo'llanishi mumkin.

2-jadval: Jahon amaliyotida qo'llanilayotgan MHXSlar ro'yhati²

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari		Kuchga kirish sanasi
IAS 1*	Moliyaviy hisobotni taqdim etish	Sentyabr 2007
IAS 2	Zaxiralar	Dek 2003
IAS 7	Pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobot	Dek 1992
IAS 8	Hisob siyosati, hisob baholaridagi o'zgarishlar va xatolar	Dek 2003
IAS 10	Hisobot davridan keyingi hodisalar	Dek 2003
IAS 12	Foyda soliqlari	Dek 2000
IAS 16	Asosiy vositalar	Dek 2003
IAS 19	Xodimlarning daromadlari	Dek 2004
IAS 20	Davlat grantlarini hisobi va davlat yordami to'g'risida ma'lumotlarni yoritib berish	Yan 1995
IAS 21	Valyuta kurslaridagi o'zgarishlarning ta'sirlari	Dek 2003
IAS 23*	Qarzlarni bo'yicha sarflar	Dek 2008
IAS 24	Bog'liq tomonlar to'g'risidagi ma'lumotlarni yoritib berish	Dek 2003
IAS 26	Pensiya dasturlari bo'yicha buxgalteriya hisobi va hisoboti	Yan 1995
IAS 27*	Alohida moliyaviy hisobot	May 2011
IAS 28	Ta'sir ostidagi tashkilotlarga va qo'shma korxonalarga investitsiyalar	Dek 2003
IAS 29	Giperinflyatsiyali iqtisodiyotda moliyaviy hisobot	Yan 1995
IAS 32	Moliyaviy instrumentlar: taqdim etish	Dek 2003
IAS 33	Bir aksiyaga to'g'ri keladigan foyda	Dek 2003
IAS 34	Oraliq moliyaviy hisobot	Fev 1998
IAS 36	Aktivlarning qadrsizlanishi	Mar 2004
IAS 37	Baholangan majburiyatlar, shartli majburiyatlar va shartli aktivlar	Sen 1998
IAS 38	Nomoddiy aktivlar	Mar 2004
IAS 40	Investitsiya ko'chmas mulki	Dek 2003
IAS 41	Qishloq xo'jaligi	Fev 2001
IFRS 1	MHXSni birinchi marta qo'llash	Yan 2003
IFRS 2	Aksiyaga asoslangan to'lov	Fev 2004
IFRS 3*	Biznes birlashuvlari	Yan 2008
IFRS 4	Sug'urta shartnomalari	Mar 2004
IFRS 5	Sotish uchun mo'ljallangan uzoq muddatli aktivlar va tugatilgan faoliyat	Mar 2004
IFRS 6	Foydali qazilmalarni geologik qidirish va baholash	Dek 2004
IFRS 7	Moliyaviy instrumentlar: ma'lumotlarni yoritib berish	Avg 2005
IFRS 8	Operatsion segmentlar	Noy 2006
IFRS 9	Moliyaviy instrumentlar	Iyul 2014
IFRS 10	Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot	May 2011
IFRS 11	Birgalikdagi faoliyat bo'yicha kelishuvlar	May 2011
IFRS 12	Boshqa tashkilotlardagi ulushlarni yoritib berish	May 2011
IFRS 13	Haqqoniy qiymatni baholash	May 2011
IFRS 14	Kechiktirilgan tarif farqlari schyotlari	Yan 2014
IFRS 15	Xaridorlar bilan shartnomalar bo'yicha tushum	May 2014
IFRS 16	Ijara	Yan 2016
IFRS 17	Sug'urta shartnomalari	May 2017

Izoh: Qayta ko'rib chiqilgan.

2 Muallif ishlanmasi.



Yangi MHXS unda belgilangan muayyan sanadan boshlab kuchga kiradi. Bunda ushbu standartni mudatidan oldin qo'llashga ruxsat berilishi yoki maqullanishi ushbu hujjatning o'zida ko'rsatiladi. Odatda, yangi standartlar retrospektiv tarzda qo'llanadi. Natijada, oldin tuzilgan shartnomalar yoki boshqa operatsiyalar ta'sirlanishi mumkin. Ba'zi holatlarda, yangi standart normalari perspektiv tarzda qo'llanishiga ruxsat berilishi mumkin.

Har bir alohida mamlakat misolida qaraganda, mahalliy qonunlar qaysidir darajada moliyaviy hisobotlar tuzilishini boshqarib turadi. O'sha mahalliy qonunlar o'z ichiga buxgalteriya hisobini tartibga soluvchi milliy organlar tomonidan ishlab chiqilgan buxgalteriya standartlarini ham oladi. Bundan farqli ravishda, MHXS kengashi MHXSlarni ishlab chiqishda faqat muhim jihatlarni hisobga oladi. Ular MHXSlarni juda murakkab bo'lib qolmasligiga harakat qiladi, aks holda bunday standartlarni butun dunyo bo'ylab qo'llab bo'lmasdi ham.

MHXS standartlarini qabul qilinishi ba'zi davlatlarda avtomatik tarzda, ya'ni MHXS fondi tomonidan e'lon qilinishi bilan kuchga kiradigan tartib o'rnatilishi mumkin. Boshqa holatlarda, o'sha mamlakat xududida MHXS hujjatlarini tan olishning tartib taomiliga muvofiq amalga oshiriladi. Xususan, O'zbekiston Respublikasida MHXSlarni tan olish Vazirlar Mahkamasining 507-son "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar matnini tan olish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" Qarori asosida amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori tasdiqlangan bo'lib, unga ko'ra quyidagilarni amalga oshirish belgilangan:

- 2021-yilning 1-yanvaridan boshlab moliyaviy hisobotni ixtiyoriy ravishda MHXSga muvofiq tayyorlovchi tashkilotlar buxgalteriya hisobining milliy standartlari bo'yicha moliyaviy hisobotni taqdim etishdan ozod etiladi;
- aksiyadorlik jamiyatlari, banklar, sug'urta tashkilotlari, ustav fondida davlat ulushi bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlar, yirik soliq to'lovchilar toifasiga kiritilgan yuridik shaxslar MHXS asosida 2021-yilning 1-yanvaridan boshlab buxgalteriya hisobining yuritilishini tashkil etadi va 2021-yilning yakunlaridan boshlab moliyaviy hisobotni tayyorlaydi;
- aksiyadorlik jamiyatlari, banklar, sug'urta tashkilotlari, ustav fondida davlat ulushi bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlar, yirik soliq to'lovchilar toifasiga kiritilgan yuridik shaxslar 2021-yilning yakuniga qadar buxgalterlarni xalqaro sertifikatlash doirasida MHXS bo'yicha "Moliyaviy hisob" yoki "Moliyaviy hisobot" fanlarini muvaffaqiyatli topshirganligi to'g'risidagi hujjatga yoxud xalqaro buxgalter sertifikatiga (ASSA va uning diplomlari, SRA, CIPA) ega bo'lgan uch nafar mutaxassisdan kam bo'lmagan miqdorda MHXSni sifatli qo'llash uchun yetarli bo'lgan xodimlar soni bilan ta'minlaydi.

MHXSga o'tish bo'yicha islohotlarning dastlabki bosqichida Moliya vazirligi (hozirgi Iqtisodiyot va moliya vazirligi) va MHXS fondi o'rtasida 2020-yil noyabr oyida kelishuv imzolandi. Mazkur kelishuvga muvofiq, MHXS xujjatlaridan O'zbekiston Respublikasida foydalanish xuquqi berildi. Bundan tashqari, 2020-yil noyabr oyida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan ASSA (Association of Chartered Certified Accountants) o'rtasida hisob, audit va biznesni boshqarish sohalari mutaxassislarini xalqaro standartlar bo'yicha kasbiy o'qitishga, shuningdek nodavlat ta'lim muassasalarini va oliy ta'lim muassasalarining o'quv dasturlarini bosqichma-bosqich xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazishga ko'maklashish to'g'risidagi Memorandum imzolandi.

Fikrimizni muhim bo'lgan xalqaro standartlardan biri 8-son BHXS "Hisob siyosati, hisob baholari va xatoliklar" bilan davom ettiramiz.

Xalqaro 8-son BHXSga asosan Hisob siyosati – bu tashkilot tomonidan moliyaviy hisobotni tayyorlashda va taqdim etishda qo'llanadigan muayyan tamoyillar, asoslar, umumqabul qilingan shartlar, qoidalar va amaliy yondashuvlardir. Bu yerda "Siyosat" so'zidan foydalanish tashkilotlarga buxgalteriya hisobining muqobil usullaridan birini tanlash huquqini berilganligini anglatadi.

Amalda xalqaro standartga muvofiq, hisobot tuzuvchi har bir tashkilotning o'z hisob siyosati mavjud bo'ladi. 1-son BHXS talabiga asosan tashkilot moliyaviy hisobotning bir qismi bo'lgan izohlarda o'z hisob siyosatining muhim jihatlari yoritib berishi belgilangan.

Hisob siyosatini tanlash.

Muayyan operatsiyaga, boshqa hodisa yoki holatga nisbatan ma'lum bir MHXS qo'llansa, bunday obyektga nisbatan qo'llanadigan hisob siyosati yoki uning qoidalari ushbu MHXSdan foydalangan holda belgilanishi lozim.

Muayyan operatsiya, boshqa hodisa yoki holatga nisbatan qo'llanadigan MHXS mavjud bo'lmagan taqdirda, tashkilot rahbariyati hisob siyosatini ishlab chiqishda va qo'llashda o'z mulohazasidan foydalanishi lozim. Bunday hisob siyosatini ishlab chiqishda rahbariyat quyidagilarga murojaat qilishi kerak:

MHXSlarda shunga o'xshash yoki bog'liq masalalarga tegishli talablar;

Moliyaviy hisobotlarni taqdim etishning konseptual asosida keltirilgan aktivlar, majburiyatlar, daromadlar va xarajatlarning ta'riflari, tan olish mezonlari va baholash konsepsiyalari. Shu o'rinda savol tug'ilishi mumkin, Tashkilot muayyan MHXS bilan tartibga solinmagan operatsiyaga nisbatan hisob siyosatini ishlab chiqishda yana qanday manbalardan foydalanishi mumkin?



Bizning fikrimizcha, rahbariyat buxgalteriya hisobi bo'yicha standartlarni ishlab chiqishda o'xshash konseptual asosdan foydalanadigan standartlar ishlab chiquvchi boshqa organlarning eng so'nggi bayonotlarini, buxgalteriyaga oid boshqa adabiyotlarni va sohaga oid qabul qilingan amaliyotlarni, ular yuqorida keltirilgan manbalarga zid kelmasligi sharti bilan e'tiborga olishi mumkin.

Hisob siyosatining izchilligi. MHXSlarda turli hisob siyosati o'rinli bo'lishi mumkin bo'lgan moddalarni toifalarga ajratish alohida talab etilmasa yoki ruxsat berilmasa, tashkilot o'xshash operatsiyalar, boshqa hodisalar va holatlar uchun hisob siyosatini tanlashi va izchil qo'llashi lozim. Agar muayyan MHXSda moddalarni bunday toifalarga ajratish talab etilsa yoki ruxsat berilsa, har bir toifaga nisbatan hisob siyosati tanlanishi va izchil qo'llanishi lozim.

Hisob siyosatidagi o'zgarishlar. 8-son BHXSga muvofiq tashkilotga o'z hisob siyosatini o'zgartirishga quyidagi hollarda ruxsat beriladi:

- muayyan MHXS tomonidan talab etilsa;
- hisob siyosatini o'zgartirish moliyaviy hisobotda operatsiyalarning, boshqa hodisalarning va holatlarning tashkilot moliyaviy holatiga, moliyaviy natijalariga yoki pul oqimlariga ta'siri to'g'risida ishonchli va yanada o'rinli ma'lumotlar aks ettirilishiga olib kelsa.

Moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilar tashkilotning moliyaviy hisobotini vaqt o'tishi bilan uning moliyaviy holati, moliyaviy natijalari va pul oqimlaridagi tendentsiyalarni aniqlash uchun qiyoslash imkoniyatiga ega bo'lishlari lozim. Shuning uchun, hisob siyosatiga o'zgartirish kiritish yuqorida ko'rsatilgan holatlar natijasi bo'lmasa, hisob siyosati davrlar aro izchil tarzda qo'llaniladi.

Hisob siyosatidagi o'zgarishlarni qo'yidagilarda ko'rish mumkin, masalan 16-son BHXS "Asosiy vositalar" yoki 38-son BHXS "Nomoddiy aktivlar"ga muvofiq, aktivlarni qayta baholash bo'yicha hisob siyosatini dastlabki qo'llash hisob siyosatidagi o'zgarish hisoblanadi va mazkur standartga muvofiq emas, balki 16-son BHXS yoki 38-son BHXSga muvofiq qayta baholash tarzida qaraladi.

Hisob siyosatidagi o'zgarishlarni qo'llash. Tashkilot muayyan MHXSni dastlabki qo'llash natijasida yuzaga keladigan hisob siyosatidagi o'zgarishni ushbu MHXSda belgilangan maxsus o'tish qoidalariga muvofiq hisobga olishi lozim bo'ladi. Agar tashkilot hisob siyosatini ixtiyoriy ravishda o'zgartirsa yoki hisob siyosatidagi o'zgarishga nisbatan qo'llanadigan maxsus o'tish qoidalarini o'z ichiga olmagan muayyan MHXSni dastlabki qo'llashda hisob siyosatini o'zgartirsa, ushbu tashkilot bunday o'zgarishlarni retrospektiv tarzda qo'llashi lozim. Yuqoridagi ikki holatda ham ushbu o'zgarishni aks ettirish amaliy imkonsiz bo'lgan holatlar inobatga olinishi lozim.

8-son BHXSda retrospektiv qo'llash va retrospektiv qayta hisoblash kabi ikki o'xshash tushuncha mavjud. Ularni farqlash muhim ahamiyat kasb etadi:

1. **Retrospektiv qo'llash** – yangi hisob siyosatini operatsiyalar, boshqa hodisalar va holatlarga nisbatan qo'llashda, ushbu hisob siyosatini har doim qo'llangandek qo'llashdir.
2. **Retrospektiv qayta hisoblash** – moliyaviy hisobot elementlari summalarini tan olish, baholash va yoritib berishga oid o'tgan davr xatolarini mutlaqo yo'l qo'yilmagandek tuzatishdir.

Hisob siyosatidagi o'zgarishlarni yoritib berish. Hisob siyosatidagi o'zgarishlar bo'yicha yoritib berilishi lozim bo'lgan ma'lumotlar o'zi ichiga bunday o'zgarishning sabablari va tuzatish summalarini oladi. Bunday ma'lumotlar amaliyotda har bir o'zgarish bo'yicha alohida yoritib beriladi.

Tashkilot e'lon qilingan, lekin hali kuchga kirmagan yangi MHXSni qo'llamagan bo'lsa, ushbu fakti va dastlabki qo'llash davrida ushbu yangi MHXSni qo'llash tashkilot moliyaviy hisobotiga ko'rsatishi mumkin bo'lgan ta'sirini baholash uchun ma'lum bo'lgan yoki asoslangan tarzda baholanishi mumkin bo'lgan o'rinli ma'lumotlarni yoritib berishi lozim.

Hisob baholaridagi o'zgarishlar. Xo'jalik faoliyatiga xos bo'lgan noaniqliklar natijasida, moliyaviy hisobotdagi ko'p moddalar aniq baholana olmaydi, balki faqat hisob bahosi orqali baholanishi mumkin. Hisob baholari eng so'nggi va ishonchli ma'lumotga asoslangan mulohazalarni o'z ichiga oladi. Masalan, quyidagilarga nisbatan hisob baholari talab etilishi mumkin:

- umidsiz qarzlari;
- zaxiralarning jismoniy eskirishi;
- moliyaviy aktivlar yoki moliyaviy majburiyatlarning haqqoniy qiymati;
- eskirish hisoblanadigan aktivlarning foydali xizmat muddati;
- kafolat majburiyati.

Hisob bahosidagi o'zgarish - aktivlar va majburiyatlarning joriy holatini hamda ular bilan bog'liq bo'lgan, kutilayotgan kelgusi naflar va javobgarliklarni baholash natijasida aktiv yoki majburiyatning balans qiymatini yoki aktivning davriy iste'moli summasini tuzatishdir. Hisob baholaridagi o'zgarishlar yangi ma'lumotlar yoki voqealar rivoji natijasida yuzaga keladi va shu sababli, xatolarni tuzatish hisoblanmaydi.

3-jadval: Hisob siyosati va hisob bahosi o'rtasidagi farq³

Nomi	Hisob siyosati	Hisob baholari
Mazmuni	Tamoyillar va qoidalar	Miqdor yoki taxminlar
Misollar	Boshlang'ich qiymatdan haqqoniy qiymatga o'tish	Rezervni haqqoniy qiymat bo'yicha belgilashga o'tish
Hisobda aks ettirish	Retrospektiv	Perspektiv

O'tgan davrdagi xatolar. Xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy hisobotlarda muhim xatolar bo'lsa, moliyaviy MHXS'larga muvofiq deb hisoblanmaydi. Potentsial xatolar moliyaviy hisobot yakunlanmasdan oldin topilishi mumkin, bu holda ular hisobot tasdiqlanishga taqdim etilgunga qadar tuzatiladi. Ammo, ba'zida keyingi hisobot davrigacha xato aniqlanmasligi mumkin. Bunday xato "o'tgan davr xatosi" deb nomlanadi.

8-son BHXSga muvofiq o'tgan davr xatolari – tashkilotning bir yoki undan ortiq o'tgan davrlar uchun moliyaviy hisobotidagi tushirib qoldirishlar va noto'g'ri ko'rsatishlar bo'lib, mazkur davrlar uchun moliyaviy hisobot e'lon qilish uchun ma'qullanganda mavjud bo'lgan va mazkur moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etishda qo'lga kiritilishi va hisobga olinishi asoslangan tarzda mumkin deb hisoblangan ishonchli ma'lumotdan foydalanmaslik yoki noto'g'ri foydalanish natijasida yuzaga keladi. Bunday xatolar matematik xatolar, hisob siyosatini qo'llashdagi xatolar, e'tiborsizlik yoki faktlarni noto'g'ri talqin qilish oqibatlarini va firibgarlikni o'z ichiga oladi.

O'tgan davr xatosini tuzatish summasi xato aniqlangan davrning foyda yoki zarari tarkibida aks ettirilmaydi. O'tgan davrlar to'g'risida taqdim etilgan har qanday ma'lumot, shu jumladan moliyaviy ma'lumotlarning o'tgan davr jamlanmasi, amaliy imkon bo'lgan eng oldingi davrdan boshlab qayta hisoblanadi. Masalan, "Fazo" MChJ 2023-yilda o'tgan 2021-yilda amalga oshirilgan 2000 dona oldindan to'lov bo'yicha yuzaga kelgan xarajatlarni hisobotda tushirib qoldirilgani aniqlandi. Ushbu xarajatlar aslida 2021-yil uchun 600 dona, 2022-yil uchun ham 600 dona, 2023-yil uchun 1400 dona tarzida aks ettirilishi lozim edi. "Fazo" MChJ tomonidan bu xatoliklik quyidagi tartibda tuzatiladi. Mazkur holatda qiyosiy davr (2022-yil) uchun xarajatlar 600 donaga oshiriladi. 2021-yil uchun xarajatlarga kiritilishi lozim bo'lgan summa taqsimlanmagan foyda orqali aks ettiriladi. Joriy davr uchun 1400 dona xarajatlarni oshiradi. Mazkur holat bo'yicha tegishli soliq ta'sirlari ham hisobga olinishi talab etiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Hisob siyosati xo'jalik subyektining moliyaviy hisobotlarini tayyorlash va taqdim etishda foydalaniladigan qoidalar va ko'rsatmalardan iborat bo'ladi. Natijada hisob siyosati barcha xo'jalik subyektlari moliyaviy hisobotlarni tuzish uchun amal qiladigan asoslarni yaratadi hamda ma'lum davr davomida boshqa xo'jalik subyektlariga nisbatan taqqoslanadigan va haqqoniy ma'lumotlarni taqdim etishga qaratiladi.

Moliyaviy hisobotlarda ochib beriladigan axborotlarni shakllantirishda hisob siyosatining muhimligini e'tiborga olib, xo'jalik subyektlari 8-son BHXS asosida hisob siyosatini tanlashda har bir qo'llaniladigan standartlar va sharhlarga (interpretatsiya) mos keladigan tarzda tanlanishi va qo'llanilishi tamoyiliga asoslanishi lozim bo'ladi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan hisob siyosatiga kiritiladigan o'zgartirishlar yoki uni qayta ko'rib chiqishda quyidagilarga e'tiborni qaratish lozim bo'ladi:

- birinchi, hisob siyosatida moliyaviy hisobotlarni tuzish uchun tasdiqlangan davrgacha bo'lgan barcha keyingi voqealarni aniqlash va ko'rib chiqish, shuningdek ushbu voqealar tuzatilishini aniqlash;
- ikkinchi, jiddiy deb hisoblangan voqealarning tabiati va moliyaviy oqibatlarini kengroq ochib berish.

Respublikamizda faoliyat yurituvchi barcha turdagi xo'jalik subyektlari uchun moliyaviy hisobotlarni tuzishda muhim hisoblangan hisob siyosatni moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiqlashtirib borilishi, provardida "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 4611-sonli qaror ijrosini ta'minlash imkoniyatini yaratadi. Shuningdek, xo'jalik yurituvchi subyektlar MHXS talablari asosida hisob siyosatini shakllantirishda umumiy qoidalar, uslubiy jihatlari, texnik jihatlari hamda tashkiliy jihatlarni shakllantirishga e'tiborni qaratish lozim deb hisoblaymiz. Bu esa xo'jalik yurituvchi subyektlarda buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotlarni tuzish shaffofligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. IAS 8 "Accounting Policies, Changes in Accounting Estimates and Errors" <https://www.ifrs.org/issued-standards/list-of-standards/ias-8-accounting-policies-changes-in-accounting-estimates-and-errors/>
2. "Hisob siyosati va moliyaviy hisobot" 1-son BHMS. [O'z Res Adliya vazirligi 1998-yil 14-avgustda 474-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan]. <https://lex.uz/docs/828581>

3 Muallif ishlanmasi.



3. Положение по бухгалтерскому учету "Учетная политика организации" (ПБУ 1/2008). Приложение N1 к Приказу Министерства финансов Российской Федерации от 06.10.2008 N 106н http://www.consultant.ru/document/cons_doc_law_164/2d52707f5a4d5314b9e470a9bf59cb826ec848dd/
4. Indian Accounting Standard (Ind AS) 8 Accounting Policies, Changes in Accounting Estimates and Errors# http://www.mca.gov.in/Ministry/pdf/IndAS8_2019.pdf
5. Accounting Standards Board of Japan (ASBJ). Japanese generally accepted accounting principles (JGAAP) Accounting Standard for Accounting Policy Disclosures, Accounting Changes and Error Corrections. www.asb.or.jp/en/jp-gaap/accounting_standards/y2020/2020-0331-03.html
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 4611-sonli qarori. 2020 yil 24 fevral. <https://lex.uz/docs/4746047>
7. Accounting Standards Board of Japan (ASBJ). Japanese generally accepted accounting principles (JGAAP) Accounting Standard for Accounting Policy Disclosures, Accounting Changes and Error Corrections. www.asb.or.jp/en/jp-gaap/accounting_standards/y2020/2020-0331-03.html
8. Disclosure of Accounting Policies APB 22 STATUS. APB22, Footnote 1-See APB Statement No. 4, This Opinion amends Statement No. 4 insofar as it relates to disclosure of accounting policies
9. www.fasb.org/jsp/FASB/Document_C/DocumentPage?cid=1176156418903&acceptedDisclaimer=true
10. Karimov A.A., Rizaev N.K., Djumanov S.A. Financial reporting and accounting policies. "Science and education in the modern world: challenges of the xxi century" материалы VII Международной науч-прак. конф. (экономические науки)/Нур-Султан, 2020. 105-108 p. conferences2018.kz@gmail.com
11. Rizaev N.K., Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida banklarida hisob siyosatini takomillashtirish. // "Logistika va iqtisodiyot" elektron-ilmiy jurnali. - Toshkent, 2020. №1, 70-80 b. <http://economyjournal.uz/>
12. Rizaev N.K., Khotamov K.R. Experience of Japan in introducing International Financial Reporting Standards // Electronic-scientific journal "Finance and Banking". – Tashkent, 2020. №1, 105-117 p. <http://journal.bfa.uz/archive>
13. Rizaev N.K. ADJUSTING NATIONAL ACCOUNTING STANDARDS IN COMPLIANCE WITH INTERNATIONAL STANDARDS IN UZBEKISTAN (as exemplified by intangible assets). PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS. VOLUME 2 , ISSUE 19 JANUARY 2023. Collection of Scientific Works. BERLIN 11 JANUARY 2023 Interonconf.com. 93-108 6.
14. Jumaev N.H., Isaev F.I., Rizaev N.K., ORGANIZATION OF TURKIC STATES: INTEROPERATION AND ACCOUNTING SYSTEM. Google Scholar, Cite Factor, Researchbib, SJIF, IFSIJ, Index Copernicus va boshqa ko'plab xalqaro ma'lumotlar bazalari bilan indekslangan Open Access Peer Reviewed International Journal. <https://journalzone.org/index.php/bjgesd/issue/view/14>

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.